

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANISHIDA MUSIQANING O'RNI: DIDAKTIK O'YINLAR BILAN DIQQAT, XOTIRA RIVOJLANTIRISH

Xakimjonova Go'zal Abdunabi qizi

O'ZMPU Professional ta'lim va san'at fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida musiqaning o'ri, xususan, musiqiy-didaktik o'yinlar orqali diqqat va xotirani rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maktabgacha yosh davrida bolaning bilish jarayonlari, jumladan, diqqat, xotira, tafakkur va musiqiy idrokining jadal rivojlanishi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Didaktik o'yinlarning pedagogik mohiyati, bolalarda ritm hissi, mantiqiy tafakkur, ijodkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'ri asoslab berilgan. Shuningdek, Lev Vygotskiy va Jean Piagetning o'yin faoliyatiga oid ilmiy qarashlari tahlil qilinib, musiqiy-didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha amaliy misollar keltirilgan. Tadqiqot natijalari musiqiy-didaktik o'yinlarning maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, musiqa ta'limi, musiqiy-didaktik o'yinlar, didaktik o'yin, diqqat, musiqiy xotira, ritm hissi, bilish jarayonlari, mantiqiy tafakkur, intellektual rivojlanish, emotsional rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, musiqiy faoliyat, ta'lim samaradorligi.

THE ROLE OF MUSIC IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN: DEVELOPMENT OF ATTENTION, MEMORY WITH DIDACTIC GAMES

Khakimjonova Go'zal Abdunabi qizi

Student of the Faculty of Professional Education and Arts of UZMPU

Abstract: This article discusses the role of music in the development of preschool children, in particular, the development of attention and memory through musical-didactic games. The child's cognitive processes, including the rapid development of attention, memory, thinking and musical perception in preschool age, are analyzed from a scientific and pedagogical point of view. The pedagogical essence of didactic games, their role in the formation of a sense of rhythm, logical thinking, creativity and social skills in children are substantiated. The scientific views of Lev Vygotsky and Jean Piaget on game activity are also analyzed, and practical examples of the use of musical-didactic games are given. The results of the study show that musical-didactic

games are an effective pedagogical tool that ensures the intellectual, emotional and social development of children in the process of preschool education.

Keywords: preschool education, preschool children, music education, musical-didactic games, didactic game, attention, musical memory, sense of rhythm, cognitive processes, logical thinking, intellectual development, emotional development, pedagogical technologies, musical activity, educational effectiveness.

РОЛЬ МУЗЫКИ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: РАЗВИТИЕ ВНИМАНИЯ И ПАМЯТИ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР

Хакиmdжoнoвa Гузал Абдунаби кизи

Студентка факультета профессионального образования и искусств УЗМПУ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль музыки в развитии детей дошкольного возраста, в частности, развитие внимания и памяти посредством музыкально-дидактических игр. С научно-педагогической точки зрения анализируются познавательные процессы ребенка, включая быстрое развитие внимания, памяти, мышления и музыкального восприятия в дошкольном возрасте. Обосновывается педагогическая сущность дидактических игр, их роль в формировании чувства ритма, логического мышления, творческих способностей и социальных навыков у детей. Также анализируются научные взгляды Льва Выготского и Жана Пиаже на игровую деятельность и приводятся практические примеры использования музыкально-дидактических игр. Результаты исследования показывают, что музыкально-дидактические игры являются эффективным педагогическим инструментом, обеспечивающим интеллектуальное, эмоциональное и социальное развитие детей в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети дошкольного возраста, музыкальное образование, музыкально-дидактические игры, дидактическая игра, внимание, музыкальная память, чувство ритма, познавательные процессы, логическое мышление, интеллектуальное развитие, эмоциональное развитие, педагогические технологии, музыкальная деятельность, эффективность обучения.

KIRISH

Har bir bola o'ziga xos aqliy salohiyatga ega. Ularning intellektual rivojlanishida xotira va diqqat asosiy o'rin tutadi. Diqqat jamlanganda o'rganish osonlashadi, xotira esa o'zlashtirilgan bilimlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu sababli bolalarda bu jarayonlarni erta bosqichdayoq rivojlantirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshda

bolaning diqqati, xotirasi, sezgisi, nutqi, eshitish analizatori faol rivojlanadi, musiqiy tovushlarga sezgirlik yuqori bo'ladi. Mazkur davrda bolalarda yangi bilish, ijtimoiy va harakat ko'nikmalari izchil shakllanadi. Bolaning diqqatini, xotirasini rivojlantirishga e'tibor qaratilsa, bolada nutqi yaxshi rivojlanada, o'zini tutish madaniyati shakllanadi, eshitish qobiliyati yanada rivojlanadi.

ASOSIY QISM

Bola miyasining moslashuvchanligi va o'rganishga bo'lgan salohiyati aynan shu davrda eng yuqori darajada bo'ladi. Shuning uchun pedagogik jarayonda xotira va diqqatni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metod va vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunga misol tariqasida, didaktik o'yinlarni olishimiz mumkin. Didaktik o'yinlar bolaga chegaralarni tushunishni o'rgatadi. Ya'ni, u "mumkin" va "mumkin emas" degan tushunchalarni anglashni boshlaydi. O'yin davomida qoidalarga rioya qilgan bola muvaffaqiyatga erishadi, qoidani buzgan bola esa natijada xatolikni ko'radi. Bu esa bolada sabab-oqibat bog'liqligini tushunishga yordam beradi va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Tartib-intizom ham aynan o'yin jarayonida shakllanadi. Bola o'yin qoidalariga rioya qilish orqali umumiy tartibga amal qilishni o'rganadi. Masalan, navbat kutish, boshqalarni tinglash, o'z vaqtida topshiriqni bajarish kabi odatlar asta-sekin kundalik hayotga ham ko'chadi. Bu esa bolaning ijtimoiy muhitga moslashishini osonlashtiradi. didaktik o'yinlar bolada o'zini boshqarish hamda irodaviy sifatlarini rivojlantiradi. Bola o'yin qoidalariga amal qilish uchun ba'zan o'z istaklarini kechiktirishga to'g'ri keladi, bu esa irodaviy sifatning shakllanishiga yordam beradi. Masalan, o'z navbatini kutish yoki tezroq javob berish istagini nazorat qilish kabi holatlar bunga misol bo'la oladi.

Didaktik o'yin – bu ma'lum pedagogik maqsad asosida tashkil etilgan o'yin faoliyati bo'lib, u bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali shaklda amalga oshirishga xizmat qiladi. "Didaktika" so'zi yunoncha "didaktikos" – "o'rgatuvchi" degan ma'noni bildiradi. Demak, didaktik o'yinlar o'rgatishga xizmat qiluvchi o'yinlar hisoblanadi. Pedagog olimlarning fikricha, didaktik o'yin: ta'limiy maqsadga ega bo'ladi; aniq qoidalarga asoslanadi; bolalarning yosh xususiyatlariga mos tashkil etiladi; bilish faoliyatini faollashtiradi. Didaktik o'yinlar bolalarda fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini jamlaydi, xotirasini mustahkamlaydi hamda ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, ranglarni farqlash, predmetlarni guruhlarga ajratish, ketma-ketlikni topish va moslikni aniqlash kabi o'yinlar mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarda musiqiy xotira bosqichma-bosqich rivojlanadi. 3 yoshli bolalar qisqa va sodda qo'shiqlarning alohida qismlarini eslab qolishlari mumkin. 4-5 yoshga kelib, ular to'liq qo'shiqlarni kuylashga qodir bo'ladilar. 6-7 yoshli bolalar esa murakkab melodiylarni, bir necha qo'shiqlarni va musiqiy asarlarni eslab qolish qobiliyatiga ega

bo'ladilar. Musiqiy xotirani rivojlantirishda takrorlash printsiplining ahamiyati katta. Biroq takrorlash mexanik emas, balki har safar yangicha, o'yin elementlari bilan boyitilgan holda amalga oshirilishi kerak. Qo'shiq kuylash musiqiy xotirani rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bolalar uchun tanlangan qo'shiqlar qisqa, sodda so'zli, takrorlanuvchi qismli va mazmunli bo'lishi kerak. Musiqiy-didaktik o'yinlar bolalarda musiqiy xotirani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. "Qaysi cholg'u chalinayapti?", "Melodiyani tanib ol", "Echoni takrorla" kabi o'yinlar orqali bolalar musiqiy tovushlar va ritm naqshlarini eslab qolishga o'rganadilar. Bu o'yinlar shu bilan birga bolalarning diqqat, eshitish va tahlil qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, 3-7 yosh oralig'i bolaning tafakkuri faol rivojlanadigan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tasavvuri, kuzatuvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

MAVZUGA OID OLIMLAR FIKRI

Lev Vygotskiy fikriga ko'ra, bolaning rivojlanishida o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Olimning ta'kidlashicha, o'yin orqali bolalar ijtimoiy tajribani egallaydi, ilmiy tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashni o'rganadi. *Vygotskiy* "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida bolaning kattalar yoki tengdoshlari yordamida murakkab vazifalarni bajarishi mumkinligini ta'kidlaydi. Didaktik o'yinlar aynan shu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. *Lev Vygotsky* o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida o'yin faoliyatini bolaning psixik rivojlanishida yetakchi omil sifatida baholaydi. Unga ko'ra, o'yin jarayonida bola kattalar faoliyatini modellashtiradi va yangi bilim hamda ko'nikmalarni egallaydi.

Jean Piaget tadqiqotlarida esa bolalarning aqliy rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishi va o'yin faoliyati orqali ular atrof-muhitni faol o'zlashtirishi ta'kidlanadi. *Piaget* fikricha, didaktik o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, tasavvurini va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov yoshida o'yin orqali o'rganish bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. *Jean Piaget* bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlagan olimlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar obrazli va amaliy fikrlashga moyil bo'ladi hamda o'yin faoliyati bolaning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. *Piaget* nazariyasida didaktik o'yinlar orqali bolalarda analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi asosiy tafakkur operatsiyalari shakllanishi izohlangan.

TADQIQOT VA NATIJALAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan 1oylik tadqiqot o'tkazildi. Mazkur tadqiqot 4-5 yoshli, 5-6 yoshli, **20 nafar** (10 nafar 4-5 yoshli, 10 nafar 5-6 yoshli) tarbiyalanuvchi ishtirokida olib borildi. Kuzatuvning asosiy maqsadi musiqiy-

didaktik o'yinlarning bolalarning diqqat va xotirasini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Kuzatuv davomida to'rt hafta mobaynida haftasiga ikki marotaba 20-25 daqiqalik musiqiy mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda **"Ovozni top"**, **"Ritmni takrorla"**, **"Kimning ovozi?"**, **"Musiqali svetofor"**, **"Qaysi cholg'u?"** hamda **"Kayfiyatni top"** musiqiy-didaktik o'yinlaridan foydalanildi. Kuzatuvning dastlabki kunlarida bolalarning aksariyati musiqa asboblari ovozlari farqlashda, ritmni to'liq takrorlashda hamda topshiriq davomida diqqatni uzoq vaqt saqlab turishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ayniqsa, yangi o'yin qoidalarini tushunishda tarbiyachining ko'magiga ehtiyoj sezildi. Mashg'ulotlar muntazam davom ettirilgach, bolalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Mashg'ulotlarning ikkinchi haftasi yakuniga kelib bolalar musiqa asboblari ovozlari tezroq ajrata boshladilar, ritmik mashqlarni aniqroq takrorladilar hamda topshiriqlarni mustaqil bajarishga intildilar. Guruhdagi bolalar o'yin qoidalariga rioya qilish, navbat kutish va bir-birini tinglash ko'nikmalarini ham namoyon etdilar.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, 20 nafar boladan **15 nafari** musiqiy tovushlarni to'g'ri farqlash, ritmni eslab qolish va takrorlash bo'yicha dastlabki mashg'ulotlarga nisbatan ancha yaxshi natija ko'rsatdi. **5 nafar** bolada esa ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular bilan individual mashg'ulotlarni davom ettirish zarurligi aniqlandi. Mashg'ulotlar davomida bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishi ortgani, emotsional holati yaxshilangani va mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga intilishi kuzatildi. Tarbiyachining kuzatuvlariga ko'ra, musiqiy-didaktik o'yinlar bolalarda nafaqat diqqat va xotirani, balki nutq faolligi, musiqiy eshituv, tezkor fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

MUSIQIY-DIDAKTIK O'YINLAR VA FOYDALARI

"Ovozni top" musiqiy eshituvni va diqqatni rivojlantiradi Tarbiyachi turli musiqa asboblari (doira, qo'ng'iroqcha, baraban, pianino, dutor va boshqalar) ovozlari navbat bilan eshittiradi. Bolalar esa qaysi cholg'u chalinayotganini topishlari kerak. Eshitish xotirasini, diqqatni jamlashni, musiqiy idrokni, tovushlarni farqlash qobiliyatini, tezkor fikrlashni rivojlantiradi.

"Ritmni takrorla" ritm hissinini va xotirani rivojlanishga yordam beradi. Tarbiyachi qo'l chalish yoki baraban yordamida ma'lum ritm chaladi. Bolalar uni aynan takrorlaydilar. Qisqa muddatli xotirani, diqqatni, koordinatsiyani, eshitish qobiliyatini, ritmni his qilishga komaklashadi.

"Kimning ovozi?" eshitish xotirasini rivojlantirish. Bir bola ko'zini yumadi. Guruhdagi boshqa bola qo'shiq aytadi. Ko'zi yumuq bola ovoz egasini topadi. Ovozni eshitgan bolada, qo'shiq ijro etgan bolada ham eshitish xotirasi, diqqatni, kuzatuvchanlikni, muloqot ko'nikmasi rivojlanadi.

"Musiqali svetofor" tezkor qaror qabul qilishni, xotirani yaxshilaydi. Yashil musiqa — yurish, sariq — qo'l chalish, qizil — to'xtash. Bolalar musiqa almashishiga qarab harakat qiladilar. Diqqatini, tezkor reaksiya qilishini, eshitish sezgirligini tezlashtiradi.

"Qaysi cholg'u?" cholg'ular bilan tanishadi. Tarbiyachi cholg'u rasmini ko'rsatadi yoki ovozi eshittiradi. Bolalar uning nomini aytadilar. Musiqiy bilimi, eshitish xotirasi, lug'at boyligi, tafakkuri ortadi.

"Kayfiyatni top" musiqa xarakterini aniqlash. Bolalar turli kuylarni tinglaydilar va ularning kayfiyatini (quvnoq, sokin, g'amgin, tantanavor) rasmlar yoki mimika orqali ifodalaydilar. Emotsional intellekt, musiqiy idrok, tasavvuri, diqqatni rivojlantiradi. Musiqiy-didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ushbu o'yinlar orqali:

- Diqqat barqarorlashadi va uni uzoq vaqt jamlash qobiliyati shakllanadi.
- Xotira (eshitish, ko'rish va harakat xotirasi) rivojlanadi.
- Nutq va lug'at boyligi ortadi.
- Mantiqiy tafakkur va tezkor fikrlash rivojlanadi.
- Musiqiy eshituv hamda ritmni his qilish qobiliyati mustahkamlanadi.
- Harakat koordinatsiyasi va mayda motorika takomillashadi.
- Ijodkorlik va tasavvur kengayadi.
- Jamoada ishlash, navbat kutish, bir-birini tinglash va hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi.
- Emotsional holat yaxshilanadi, bolalarda quvonch, qiziqish va o'ziga ishonch hissi ortadi.

Olingan kuzatuv natijalari musiqiy-didaktik o'yinlardan muntazam foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Musiqiy-didaktik o'yinlar nafaqat bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, balki diqqat, xotira, tafakkur, nutq, hissiy barqarorlik va ijtimoiy ko'nikmalarni ham kompleks ravishda shakllantiradi. Shu sababli ular maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy mashg'ulotlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagog va ota-onaning to'g'ri tashkil etilgan yondashuvi esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, didaktik o'yinlar maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kichik yoshdagi bolalarda musiqiy xotirani rivojlantirishning metodik asoslari *Islimova Madina Zokirovna*// Science and Education, 2025. – Vol. 6, No. 11. – B. 647–651.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi *Meyliyeva Sevinch, Alikulova Muhayyo*// Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. –B. 129-131.
3. Maktabga tayyorlov yoshida aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati *Ziyodullayeva, Ruxshona, Ismoilov Bobur* // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali.
4. “Bolalarda xotira va diqqatni rivojlantirish” *Fayziyeva Nodira, Turobova Munira*// Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. –B. 447-450